



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№1**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukurimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikrarov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyeich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyea Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                  |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....                                                                                                 | 52  |
| Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna                                                                                                                     |     |
| MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI<br>TAKOMILLASHTIRISH.....                                                           | 56  |
| Isoqov Zafarjon Zokirjonovich                                                                                                                    |     |
| INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA<br>XALQARO TAJRIBA .....                                               | 60  |
| Maksumova Umidaxon Sadikjonovna                                                                                                                  |     |
| ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР .....                                                                                                                    | 64  |
| Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович                                                                                      |     |
| ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА<br>ЭФФЕКТИВНОСТИ .....                                                              | 67  |
| Каракулов Фарход Зайпудинович                                                                                                                    |     |
| MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH<br>SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI .....                           | 72  |
| Ergashev Jamshid Axmadaliyevich                                                                                                                  |     |
| MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT<br>MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....          | 77  |
| Iskandarova Munisa Hasan qizi                                                                                                                    |     |
| MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI .....                                                                 | 82  |
| Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich                                                                                      |     |
| MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING<br>RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....                                   | 87  |
| Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna                                                                                                                |     |
| NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA<br>TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI .....   | 93  |
| Odilova Malika Abdushukur qizi                                                                                                                   |     |
| TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI<br>TAKOMILLASHTIRISH.....                                                    | 98  |
| Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li                                                                                                            |     |
| ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ .....                                                                                              | 103 |
| Артикова Шохида Ильясовна                                                                                                                        |     |
| MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI<br>BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI..... | 107 |
| Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich                                                                                                            |     |
| THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC<br>TRANSFORMATION .....                                                  | 114 |
| Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli                                                                                               |     |
| РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ<br>МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ .....                                             | 120 |
| Расулов Нозимжон Набиджонович                                                                                                                    |     |
| QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI<br>OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....         | 125 |
| Saburov Jumanazar Saliyevich                                                                                                                     |     |
| KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI<br>KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI .....                                  | 129 |
| Mayliyeva Sadoqat Safayozovna                                                                                                                    |     |
| ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ<br>РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....                                                     | 134 |
| Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли                                                                                                                  |     |



|                                                                                                                                     |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARI<br>SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI ..... | 141 |
| Xayitov Rustam Burxonovich                                                                                                          |     |
| BARQAROR MOLIALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSIYALARNI<br>RIVOJLANTIRISH.....                                   | 146 |
| Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li                                                                                                 |     |
| BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN<br>FOYDALANISH.....                                                 | 151 |
| Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich                                                                                                   |     |
| HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI .....                                                              | 159 |
| Ibodova Dilsora Ibodovna                                                                                                            |     |
| INVESTITION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....                                                                | 165 |
| Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista                                                                                  |     |
| KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI<br>KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....                              | 170 |
| Xalimbetov Farxad Bagibekovich                                                                                                      |     |
| MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY<br>YONDASHUVLAR.....                               | 173 |
| Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li                                                                                                       |     |
| СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ<br>РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....                                        | 179 |
| Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи                                                                                                   |     |
| SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING<br>INNOVATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI .....            | 186 |
| Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi                                                                                          |     |
| TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH<br>MODELLARI .....                                      | 200 |
| Eshboyev Ulug'bek Farxodovich                                                                                                       |     |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIYASINI<br>TAKOMILASHTIRISH .....                                       | 205 |
| Zufarova Zilola Raxim qizi                                                                                                          |     |
| TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI<br>OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI .....             | 216 |
| Rahmonqulov Temirbek Eshmatovich                                                                                                    |     |
| MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI<br>BAHOLASH.....                                     | 222 |
| Aliyarov Olim Abdug'aparovich                                                                                                       |     |
| AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI .....                                                                  | 231 |
| Saidov Dilshodbek Razzakovich                                                                                                       |     |
| UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY<br>TAJRIBALARI.....                                         | 236 |
| Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li                                                                                                 |     |
| TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....                                                        | 241 |
| Jumanova Zilola Tuychiyevna                                                                                                         |     |
| RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING<br>RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI .....               | 248 |
| X.R. Aliyev                                                                                                                         |     |



# RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI

X.R. Aliyev

Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada rivojlangan mamlakatlarda shakllangan bank ekotizimlarining institutsional tuzilishi, raqamli arxitekturasi va boshqaruv mexanizmlari O'zbekiston bank tizimida shakllanayotgan ekotizim elementlari bilan qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy institutsional tahlil, tizimli yondashuv hamda platformaviy arxitektura tahlili usullaridan foydalanildi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari va konsalting tashkilotlarining so'nggi yillardagi tahliliy hisobotlari hamda raqamli bankchilik va fintek rivojlanishiga oid ilmiy manbalar tadqiqotning axborot bazasini tashkil etdi. Tahlil natijalariga ko'ra, rivojlangan davlatlarda bank ekotizimlari platformaviy arxitektura, ochiq API integratsiyalar va fintek subyektlari bilan strategik hamkorlikka asoslangan biznes modellari orqali faoliyat yuritadi. O'zbekistonda esa bank ekotizimlarining rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, raqamli infratuzilmaning kengayishiga qaramasdan, davlat banklarining yuqori ulushi, institutsional cheklovlar va korporativ boshqaruv samaradorligining yetarli emasligi ekotizimlarning to'liq shakllanish jarayonini sekinlashtirmoqda. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston bank tizimi uchun rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda lokallashtirilgan bank ekotizimi konseptual modeli va uni joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** raqamli transformatsiya, bank ekotizimi, platformaviy bank modeli, ochiq bankchilik, Banking-as-a-Service (BaaS), fintek integratsiyasi, API integratsiya, korporativ boshqaruv.

**Abstract.** This article provides a comparative analysis of the institutional structure, digital architecture, and governance mechanisms of bank ecosystems formed in developed countries and the ecosystem elements emerging within the banking system of Uzbekistan. The study applies comparative institutional analysis, a systems approach, and platform architecture analysis. Analytical reports of international financial institutions and consulting organizations, as well as recent academic studies on digital banking and fintech development, constitute the information base of the research. The findings indicate that bank ecosystems in developed economies operate on the basis of platform-oriented architectures, open API integrations, and strategic cooperation with fintech entities. In Uzbekistan, the development of bank ecosystems is progressing gradually; however, the high share of state-owned banks, institutional constraints, and insufficient corporate governance efficiency slow down the formation of fully functional ecosystems. Based on the results, a localized conceptual model of a bank ecosystem adapted to the conditions of Uzbekistan and practical recommendations for its implementation are proposed.

**Key words:** digital transformation, bank ecosystem, platform-based banking model, open banking, Banking-as-a-Service (BaaS), fintech integration, API integration, corporate governance.

**Аннотация.** В статье проведён сравнительный анализ институциональной структуры, цифровой архитектуры и механизмов управления банковских экосистем, сформировавшихся в развитых странах, и элементов экосистемы, формирующихся в банковской системе Узбекистана. В ходе исследования использованы методы сравнительного институционального анализа, системного подхода и анализа платформенной архитектуры. Информационную базу исследования составили аналитические отчёты международных финансовых институтов и консалтинговых организаций, а также современные научные публикации, посвящённые развитию цифрового банкинга и финтеха. Результаты исследования показывают, что в развитых странах банковские экосистемы функционируют на основе платформенной архитектуры, открытых API-интеграций и стратегического взаимодействия с финтех-компаниями. В Узбекистане развитие банковских экосистем осуществляется поэтапно, однако высокая доля государственных банков, институциональные ограничения и недостаточная эффективность корпоративного управления замедляют формирование полноценных экосистем. По итогам исследования предложена локализованная концептуальная модель банковской экосистемы и практические рекомендации по её внедрению в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** цифровая трансформация, банковская экосистема, платформенная модель банкинга, открытый банкинг, Banking-as-a-Service (BaaS), финтех-интеграция, API-интеграция, корпоративное управление.



## KIRISH

So'nggi yillarda global moliya tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi bank sektorining an'anaviy faoliyat yuritish tamoyillarini tubdan o'zgartirdi. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, moliyaviy xizmatlarning onlayn shaklga o'tishi hamda fintek kompaniyalarining bozorga faol kirib kelishi banklarning biznes modellari va raqobat strategiyalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Natijada bank faoliyatida platformaviy yondashuv, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv va ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlariga tayanuvchi yangi rivojlanish modeli shakllanmoqda.

Bugungi kunda "bank ekotizimi" tushunchasi bank xizmatlarining oddiy raqamlashtirilgan shaklidan ancha keng mazmun kasb etib, o'zaro bog'langan ishtirokchilar — banklar, fintek subyektlari, to'lov provayderlari, texnologik platformalar, regulyatorlar va mijozlar o'rtasidagi murakkab integratsiyalashgan tizimni ifodalaydi. Bunday ekotizimli yondashuv banklarga nafaqat moliyaviy xizmatlar ko'rsatish, balki qo'shimcha raqamli mahsulotlar va servislar orqali yangi qiymat yaratish imkonini bermoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bank ekotizimlarining samarali faoliyati platformaviy arxitektura, ochiq API integratsiyalar, Banking-as-a-Service (BaaS) konsepsiyasi hamda fintek kompaniyalari bilan strategik hamkorlik asosida shakllanadi. Ushbu model doirasida banklar mustaqil moliyaviy institutdan ko'ra, ko'p funktsiyali raqamli xizmatlar markaziga aylanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu esa mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va innovatsion mahsulotlarni tezkor joriy etish imkonini yaratadi.

O'zbekistonda ham bank tizimi so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlar fonida transformatsiya bosqichiga kirib bormoqda. Davlat banklari ulushini qisqartirish, xususiy kapitalni jalb etish, raqamli to'lov infratuzilmasini rivojlantirish hamda fintek subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar bank ekotizimlarining shakllanishi uchun muhim institutsional asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga bank ekotizimlarining rivojlanishi hali dastlabki bosqichda bo'lib, platformaviy arxitekturaning yetarli darajada rivojlanmagani, API integratsiyalarning cheklanganligi hamda korporativ boshqaruv samaradorligining pastligi ushbu jarayonni sekinlashtirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, rivojlangan davlatlar bank ekotizimlari modeli va O'zbekiston bank tizimida shakllanayotgan ekotizim elementlarini qiyosiy tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Mazkur tadqiqot bank tizimini global tendensiyalarga mos ravishda rivojlantirish uchun ustuvor yo'nalishlarni aniqlash, ekotizimli yondashuvning mahalliy sharoitdagi imkoniyatlari va cheklovlarini baholash hamda milliy bank ekotizimini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi rivojlangan davlatlar bank ekotizimlari tajribasini tahlil qilish asosida O'zbekiston bank tizimida ekotizimli rivojlanish jarayonlarining xususiyatlarini aniqlash va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning obyekti bank ekotizimi hisoblanib, predmeti esa rivojlangan davlatlar va O'zbekiston bank tizimida bank ekotizimlarining shakllanishi, institutsional, texnologik hamda platformaviy rivojlanish mexanizmlaridir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank ekotizimlari konsepsiyasining ilmiy shakllanishi biznes ekotizimlari va raqamli platformalar nazariyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu yo'nalishda dastlab J. Moore tomonidan ilgari surilgan biznes ekotizimi tushunchasi tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va hamkorlik raqobatbardoshlikning muhim omili ekanini asoslab bergan. Keyinchalik mazkur yondashuv raqamli iqtisodiyot sharoitida kengaytirilib, bank sektorida yangi rivojlanish modellarini tushuntirish uchun nazariy asos sifatida qo'llanila boshlandi.

Platforma iqtisodiyoti hamda modul arxitektura masalalari Gawer va Cusumano tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Mualliflar platformaning yadro texnologiyalari va ularni to'ldiruvchi hamkor subyektlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar qiymat yaratishning asosiy mexanizmi ekanini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv bank ekotizimlarida ochiq API integratsiyalar, modul xizmatlar va ko'p tomonlama hamkorlikning ahamiyatini tushuntiradi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarda rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimlari uchun xos bo'lgan institutsional cheklovlar masalasi yetarlicha yoritilmagan.

Fintek va bank sektori o'rtasidagi integratsion jarayonlarning nazariy poydevori ochiq innovatsiyalar konsepsiyasi bilan izohlanadi. H. Chesbrough tomonidan ilgari surilgan ushbu yondashuvga ko'ra, banklarning innovatsion rivojlanishi faqat ichki resurslar bilan emas, balki tashqi hamkorlar — fintek kompaniyalari, startaplar va texnologik platformalar bilan hamkorlik orqali ta'minlanadi. Ushbu konsepsiya Banking-as-a-Service va Banking-as-a-Platform modellarining shakllanishiga nazariy asos bo'lib xizmat qilgan bo'lsa-da, ularning milliy bank tizimlariga moslashtirish mexanizmlari cheklangan darajada o'rganilgan.



Bank ekotizimlarini bevosita moliya sektori misolida tahlil qilgan tadqiqotchilar orasida Puschmann, Zachariadis va Ozcan, shuningdek, Alt va Zimmermannlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlarda raqamli bankchilikning institutsional transformatsiyasi, Open Banking tashabbuslari va PSD2 doirasidagi islohotlarning banklar raqobat muhitiga ta'siri keng yoritilgan. Biroq mazkur ishlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat banklari ulushining yuqoriligi va korporativ boshqaruv samaradorligi kabi omillarning bank ekotizimlari rivojiga ta'siri yetarli darajada tahlil qilinmagan.

Xalqaro moliya institutlari va konsalting tashkilotlarining hisobotlarida bank ekotizimlarining rivojlanish tendensiyalari amaliy nuqtayi nazardan yoritilgan. EY, PwC va McKinsey tadqiqotlarida platformaviy arxitektura, ma'lumotlar ekotizimi hamda fintek–bank hamkorligi bank sektorida samaradorlikni oshiruvchi asosiy omillar sifatida baholanadi. Shu bilan birga, ushbu hisobotlar ko'proq rivojlangan bozorlarga qaratilgan bo'lib, ularning O'zbekiston kabi iqtisodiyotlar uchun moslashuv jihatlari yetarlicha ochib berilmagan.

O'zbekiston olimlarining tadqiqotlarida bank ekotizimlarini shakllantirish masalalari bosqichma-bosqich yoritilmoqda. Mahalliy ilmiy ishlarda fintek–bank hamkorligi, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi va to'lov tizimlarining modernizatsiyasi asosiy omillar sifatida ko'rsatiladi. Biroq mavjud tadqiqotlar milliy bank ekotizimini rivojlangan davlatlar tajribasi bilan kompleks qiyosiy tahlil qilish hamda platformaviy arxitektura va institutsional cheklovlarning o'zaro ta'sirini chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatmoqda.

Shu sababli, mazkur tadqiqot xalqaro nazariy yondashuvlar va mahalliy bank amaliyoti o'rtasidagi ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, rivojlangan davlatlar bank ekotizimlari tajribasini O'zbekiston sharoitida qiyosiy tahlil qilish orqali yangi ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishni maqsad qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot rivojlangan davlatlar bank ekotizimlari hamda O'zbekiston bank tizimida shakllanayotgan ekotizimli rivojlanish jarayonlarini qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi bank ekotizimini murakkab, ko'p darajali va o'zaro bog'langan tizim sifatida baholash imkonini beruvchi tizimli, institutsional hamda platformaviy yondashuvlarga asoslandi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy institutsional tahlil usuli orqali rivojlangan davlatlar va O'zbekiston bank tizimi o'rtasidagi ekotizimli rivojlanish farqlari aniqlandi. Ushbu usul bank ekotizimlarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi institutsional omillarni, jumladan, davlat banklari ulushi, regulativ muhit va korporativ boshqaruv samaradorligini baholash imkonini berdi.

Shuningdek, tizimli tahlil bank ekotizimini yagona tizim sifatida ko'rib chiqib, undagi ishtirokchilar, jarayonlar va raqamli platformalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga xizmat qildi. Platformaviy arxitektura tahlili esa ochiq API integratsiyalar, Banking-as-a-Service va Open Banking elementlarining bank ekotizimidagi o'rnini baholashda qo'llanildi.


Tadqiqotda SWOT va GAP tahlil usullaridan ham foydalanildi. SWOT tahlil bank ekotizimlarining kuchli va zaif jihatlari, mavjud imkoniyatlar hamda ehtimoliy xatarlarni aniqlashga xizmat qilgan bo'lsa, GAP tahlil O'zbekiston bank ekotizimining rivojlangan davlatlar tajribasidan qanchalik farq qilishini baholash hamda ushbu tafovutlarni qisqartirish yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi.

Mazkur metodologik yondashuv bank ekotizimlarining rivojlanish xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish va O'zbekiston bank tizimi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun yetarli metodik asos yaratdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari rivojlangan davlatlardagi bank ekotizimlarining arxitekturasini, innovatsion integratsiya darajasi hamda institutsional muhitini O'zbekiston bank tizimida shakllanayotgan ekotizim modeli bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini berdi. Olingan tahliliy ma'lumotlar jadval va diagrammalar orqali tizimli tarzda aks ettirildi. Tadqiqotda keltirilgan foizli ko'rsatkichlar muallif tomonidan EY, World Bank, BIS hamda ochiq xalqaro tahliliy hisobotlar asosida umumlashtirilgan ma'lumotlar negizida hisoblab chiqilgan.


Tahlil natijalariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda bank ekotizimlarining platformalashuv darajasi o'rtacha 90 % ni tashkil etishi, O'zbekistonda esa ushbu ko'rsatkich 40 % atrofida shakllanib borayotgani aniqlandi. Mazkur holat mahalliy bank sektorida platformaviy arxitektura bosqichma-bosqich rivojlanayotganini, mikroxizmatlar (microservices) joriy etilishi va bank ekotizimining modullashtirilishi uchun sezilarli institutsional va texnologik salohiyat mavjud ekanini ko'rsatadi. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar, raqamli transformatsiya dasturlari hamda moliyaviy texnologiyalarni joriy etish jarayonlari o'rta va uzoq muddatli istiqbolda O'zbekiston bank tizimida to'liq platformaviy ekotizim shakllanishini ta'minlashga xizmat qilishi kutilmoqda (1-rasm).



1-rasm. Platformalashuv darajasi (%)

Diagramma “Platformalashuv darajasi (%)” mazkur tafovutni vizual tarzda yaqqol namoyon etdi. Ushbu ko'rsatkichlar banklarning raqamli xizmatlari, API mavjudligi hamda platformaviy infratuzilmasi bo'yicha muallif tomonidan ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida aniqlangan.

API ochiqligi global bank ekotizimlarining muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, rivojlangan bozorlarda API ochiqligi o'rtacha 85 % ni tashkil etib, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 35 % atrofida shakllanmoqda. Mazkur holat milliy bank sektorida fintek–bank integratsiyasi bosqichma-bosqich rivojlanayotganini, Open Banking tamoyillarini joriy etish uchun zarur institutsional va texnologik asoslar yaratilayotganini ko'rsatadi. Kelgusida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, standartlashtirilgan API yechimlarini kengaytirish va ma'lumot almashinuvi mexanizmlarini soddalashtirish orqali banklar va fintek kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikning sezilarli darajada faollashishi hamda raqamli moliyaviy xizmatlar bozorining jadal rivojlanishi kutilmoqda (2-rasm).




2-rasm. API ochiqligi (%)

“API ochiqligi (%)” diagrammasi integratsiya darajasidagi sezilarli tafovutni vizual tarzda aks ettirdi. Ushbu farq rivojlangan bozorlarda Open Banking va PSD2 standartlarining izchil joriy etilgani, O'zbekistonda esa mazkur mexanizmlarni bosqichma-bosqich shakllantirish jarayoni davom etayotgani bilan izohlanadi. Bu esa milliy bank tizimida xalqaro moliyaviy standartlarga moslashish jarayoni faol bosqichga kirganini ko'rsatadi.

Fintek kompaniyalari bank ekotizimining muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda fintek integratsiyasi darajasi o'rtacha 88 % ni tashkil etib, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich 45 % atrofida shakllanmoqda. Mazkur holat mamlakatda fintek bozori izchil rivojlanib borayotganini, banklar va texnologik kompaniyalar o'rtasida hamkorlik modelini chuqurlashtirish uchun yetarli institutsional va texnologik salohiyat mavjud ekanini anglatadi.



Ayrim banklarda fintek bilan hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish, API gateway va sandbox tizimlarini to'liq joriy etish zarurati saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, "Fintek integratsiyasi (%)" diagrammasi ushbu yo'nalishda ijobiy dinamikani namoyon etadi. Kelgusida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, innovatsion hamkorlik platformalarini rivojlantirish hamda institutsional qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish orqali fintek-bank hamkorligi bank ekotizimining asosiy o'sish drayverlaridan biriga aylanishi kutilmoqda (3-rasm).



3-rasm. Fintek integratsiyasi (%)

Rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda davlat banklari ulushi o'rtacha 10 % ni, O'zbekistonda esa 60 % ni tashkil etadi. Mazkur nisbat milliy bank sektorida davlat ishtiroki yuqoriligi saqlanib qolayotganini hamda raqobat muhitini bosqichma-bosqich kuchaytirish, innovatsion tashabbuslarni rag'batlantirish va korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini anglatadi. Bu jarayonlar o'rta va uzoq muddatli istiqbolda banklarning strategik moslashuvchanligini oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirishga imkon berdi:

1. Infratuzilmaviy rivojlanish salohiyati yuqori. Platformalashuv, API ochiqdigi va fintek integratsiyasi bo'yicha O'zbekistonda jadal rivojlanish uchun zarur texnologik va institutsional zamin shakllanmoqda.

2. Ekotizim rivoji uchun institutsional islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat ishtirokini optimallashtirish, banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirish, fintek-bank hamkorligini kengaytirish hamda Yevropa PSD2 standartlariga yaqin Open Banking tizimini joriy etish bank ekotizimining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

3. Ma'lumotlar va sun'iy intellektga asoslangan ekotizim strategik ustunlikni shakllantiradi. Big Data, AI (ML algoritmlari), Data Lake arxitekturasi va API Gateway infratuzilmasini rivojlantirish bank xizmatlarining samaradorligini oshirish va innovatsion mahsulotlar yaratish uchun muhim texnologik asos bo'lib xizmat qiladi.

4. O'zbekistonda rivojlanish potentsiali yuqori. Raqamli to'lovlar hajmining kengayishi, yoshlar o'rtasida fintek xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi hamda mobil bank xizmatlarining ommalashuvi bank ekotizimlarining tezkor va barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirmoqda.

Mazkur holat bank ekotizimlarining samarali rivojlanishida mulkchilik tuzilmasi va korporativ boshqaruv sifatini oshirish muhim institutsional omil ekanini tasdiqlaydi hamda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarning strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda rivojlangan davlatlar bank ekotizimlarining shakllanish xususiyatlari hamda O'zbekiston bank tizimida ekotizimli yondashuvni joriy etish jarayonlari qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar bank ekotizimi zamonaviy moliyaviy tizimning istiqbolli rivojlanish modeli ekanini hamda uning samaradorligi platformaviy arxitektura, ochiq integratsiyalar va fintek subyektlari bilan hamkorlik darajasi bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda bank ekotizimlari ochiq API tizimlari, Banking-as-a-Service konsepsiyasi va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modellari asosida barqaror faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston bank tizimida esa ekotizimli rivojlanish jarayoni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayon doirasida platformaviy infratuzilmani rivojlantirish, API integratsiyalarni kengaytirish hamda



institutsional muhitni takomillashtirish uchun zarur tashkiliy va texnologik zamin shakllanib bormoqda, bu esa yaqin istiqbolda ekotizimli transformatsiya sur'atlarini sezilarli darajada jadallashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, raqamli to'lov infratuzilmasining kengayishi, mobil bank xizmatlarining ommalashuvi va fintek bozorining faol shakllanishi O'zbekiston bank ekotizimini rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari asosida platformaviy arxitekturani joriy etish, ochiq API integratsiyalarni kengaytirish, fintek–bank hamkorligini institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish bank ekotizimini rivojlantirishning ustuvor va istiqbolli yo'nalishlari sifatida belgilandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda rivojlangan davlatlar bank ekotizimlari tajribasi asosida O'zbekiston bank tizimi sharoitiga moslashtirilgan, institutsional, texnologik va platformaviy omillarni kompleks tarzda o'zida mujassamlashtirgan bank ekotizimi konseptual modeli taklif etildi. Shuningdek, bank ekotizimlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar qiyosiy tahlil asosida aniqlanib, ularning samaradorligini oshirish va transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot O'zbekiston bank tizimida ekotizimli transformatsiyani izchil amalga oshirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi hamda kelgusida bank sektorini rivojlantirishga qaratilgan strategik qarorlarni ishlab chiqishda samarali qo'llanishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Moore, J. F. (1996). *The Death of Competition: Leadership and Strategy in the Age of Business Ecosystems*. Harper Business.
2. Gawer, A., & Cusumano, M. (2014). Platforms and innovation. *Journal of Product Innovation Management*, 31(3), 417–433.
3. Chesbrough, H. (2003). *Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology*. Harvard Business School Press.
4. Puschmann, T. (2017). Fintech and bank transformation. *Electronic Markets*, 27(4), 315–323.
5. Zachariadis, M., & Ozcan, P. (2017). The API economy and digital transformation in financial services. *LSE Working Paper*.
6. Alt, R., & Zimmermann, H. D. (2019). Electronic markets and platform ecosystems. *Electronic Markets*, 29(3), 397–402.
7. EY. (2023). *Digital Ecosystem-enabled Banking Transformation*. EY Global Report.
8. World Bank. (2024). *Financial Sector Assessment Program (FSAP): Uzbekistan*. World Bank Group.
9. Qayumov, R. I., & To'ymuhamedov, I. R. (2024). Tijorat banklarida bank ekotizimini shakllantirishning institutsional asoslari. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 25(2), 45–54.
10. Shoymaradonov, O. (2023). Biznes ekotizimlari va ularning bank sektoridagi qo'llanilishi. *Iqtisodiy tadqiqotlar*, 4(1), 66–74.
11. Bekmuradov, A. (2024). Bank tizimini raqamli transformatsiya qilishda ekotizimli yondashuvning ahamiyati. *Moliya va bank ishi*, 3(2), 29–38.
12. Ro'ziyev, N. (2022). Tijorat banklari faoliyatini transformatsiya qilishda raqamli texnologiyalarning roli. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(4), 60–73.
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *Bank tizimini rivojlantirish bo'yicha tahliliy hisobot*. Toshkent.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). *Raqamli bank xizmatlari va to'lov infratuzilmasi sharhi*. Toshkent.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 1

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---